O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

MIRZAKABILOV RAVSHAN NARKUZIYEVICH

SOBOLEV FAZOSIDA OPTIMAL AYIRMALI FORMULALAR

01.01.03 – Hisoblash matematikasi va diskret matematika
(fizika-matematika fanlari)

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent-2023

UDK: 519.62

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

MIRZAKABILOV RAVSHAN NARKUZIYEVICH

SOBOLEV FAZOSIDA OPTIMAL AYIRMALI FORMULALAR

01.01.03 – Hisoblash matematikasi va diskret matematika
(fizika-matematika fanlari)

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent-2023

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.PhD/FM342 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://ik-fizmat.nuu.uz/) va «Ziyonet» ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Shadimetov Xolmatvay Maxkambayevich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Hayotov Abdullo Raxmonovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Xudoyberganov Mirzoali Urazaliyevich fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 raqamli Ilmiy kengashning «___»_________ 2023 yil soat____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «____» _______________kuni tarqatildi.
(2023 yil «____» ___________ dagi _______ raqamli reestr bayonnomasi).

M.M. Aripov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, f.-m.f.d., professor

Z.R. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d.

R.D. Aloyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida hozirgi vaqtda matematik fizika tenglamalari bilan tafsiflangan fizika va texnikaning koʻpgina masalalarini sonli yechishda chekli ayirmalar usulidan foydalaniladi. Ayirmali usullarning asosiy tushunchalari, bular approksimatsiya, turgʻunlik, yaqinlashish boʻlib, oddiy differensial tenglamalar uchun ayirmali sxemalar misollarida namoyish etiladi. Katta sonli hisoblashlarda oddiy differensial tenglamalarni taqribiy yechish jarayonini optimallashtirish foydali boʻladi, agar hisoblashlar ayirmali formulalar yordamida bajarilsa, u holda formulalarni oʻzi ham optimallashtiriladi. Bugungi zamonaviy qarashda ayirmali formulalarni optimallashtirish muammosi bu ayirmali formulalarning xatolik funksionali normasi minimumini izlash muammosi kabi qaraladi. Shu sababli, Sobolev fazolarida optimal ayirmali formulalarni qurish va optimal ayirmali formulalarning xatolik funksionalining normasini topish hisoblash matematikasining dolzarb masalalari boʻlib hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyoda diskret usullar amaliy masalalarda keng qoʻllanilmoqda. Koshi masalasini yechishda diskret usullarining oʻziga xos xususiyati shundaki, izlanayotgan yechimni topish uchun avvaldan hisoblangan taqribiy yechim qiymatlarini yechish jarayoniga qoʻllagan holda algoritmni takrorlashdan iborat boʻladi. Bunung uchun ushbu masalani hal qilishning eng samarali sonli usulini tanlash talab qilinadi. Fazolarda berilgan aniq masalalar sinfi doirasida mumkin boʻlgan xatoliklarni minimallashtiradigan sonli usul - optimal sonli usul deb ataladi. Shuning uchun, Sobolev fazosida Adams tipidagi oshkor va oshkormas optimal ayirmali formulalarni qurish, hamda qurilgan optimal ayirmali formulalar xatolik funksionallarining normalari kvadratlarini hisoblash ustuvor ilmiy tadqiqotlardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda amaliy masalalarni yechishning optimal sonli usullarini ishlab chiqish va ularning funksional fazolardagi xatoliklarini baholash, xususan, Sobolev fazosida optimal ayirmali, kubatur, interpolyatsion formulalar nazariyalari, hamda differensial operatorlarning diskret analoglarini qurish kabi muhim ilmiy yoʻnalishlarga katta eʼtibor qaratilmoqda. “Matematik va funksional analiz, algebra, differensial tenglamalar nazariyasi, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, matemtik fizika, matematik modellashtirish, hisoblash matematikasi va diskret matematika” kabi ustuvor yoʻnalishlar boʻyicha xalqaro standartlar darajasidagi ilmiy izlanishlar olib borish OʻzR FA V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi[1]. Qaror ijrosini taʼminlash maqsadida funksional fazolarda optimal ayirmali formulalar qurish muhim ahamiyatga ega.

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4708-son qarori.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral PF-4947-sonli «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida»gi, 2022 yil 28 yanvar PF-60 sonli «2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida»gi farmonlari, 2017 yil 17 fevral PQ-2789-sonli «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi, 2017 yil 20 aprel PQ-2909-sonli «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi, 2018 yil 27 aprel PQ-3682-sonli «Innovatsion gʻoyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi, 2020 yil 7 may PQ-4708-sonli «Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Oddiy differensial tenglamalarni taqribiy yechishda ayirmali formulalarni qurish va tuzilgan formulalarning xatoligini baholashni oʻrganish boʻyicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida dunyoda bir qator dolzarb muammolar hal qilingan, shu jumladan quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan. Oddiy differensial tenglamalar uchun Koshi masalasini sonli yechishda hisoblash usullari bu masalalar yechimini ifodalovchi funksiyalarni taqribiy aniqlashga xizmat qiladi. Funksiya uchun eng qulay sonli ifodalarni topish masalasi va uning bunday yaqinlashuvchanligini takomillashtirish usullari bilan bogʻlanishi amaliy hisob-kitoblarda muhim oʻrin tutadi. Muayyan masalaning oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, jarayonni sezilarli darajada tezlashtirish mumkin.

Ma’lumki, bir qator ishlar oddiy differensial tenglamalarni sonli yechishga bagʻishlangan. Marko Berardi, Luciano Lopez ishida k-qadamli Adams-Bashfort usulidagi interpolyatsiyali koʻphad toʻrdan tashqari nuqtalarda sonli yechimni hisoblashda foydalanish mumkinligi isbotlangan. N.G.Chikurov oddiy differensial tenglamalar sistemalarini Shennon shakliga keltirishga asoslangan sonli yechish usulini koʻrib chiqqan. Yogita Sukale, Varsha Daftardar-Gejji oʻz ishlarida yangi iteratsion usul bilan improvizatsiya qilish yordamida Adams-Multon usullarini ishlab chiqdilar. Shirley Abelman, Kailash C. Patidarlar yonish tenglamasini qattiq oddiy differentsial tenglamalar sinfi nomzodlaridan biri sifatida koʻrib chiqishgan. Yechim $\delta > 0$ ga teskari proporsional vaqt oraligʻida qidirilgan (bu yerda $\delta > 0$ yonishdan oldingi holatning kichik gʻalayonlanishi). Adekoya Odunayo M. va Z.O. Ogunwobi ikkinchi tartibli oddiy differensial tenglamada Adams-Bashfort-Moulton usullarini va Miln-Simpson usullarini solishtiradi. Sajal K. Karning ishida Adams-Bashfort sxemasidan foydalangan holda vaqt boʻyicha yangi prediktor-korrektor ayirmali sxemasi kiritiilgan. Beuken L., Cheffert O., Tutueva A., Butusov D., Legat V. ishlarida yarim oshkor va yarim oshkormas hollari uchun prediktor-korrektor usullarning sonli turg‘unligi va samaradorligi isbotlangan. Tutueva A., Butusov D. prediktor-korrektorning odatdagi algoritmlariga qaraganda, yarim oshkor usullari yuqori sonli turg‘unlikka egaligini oshkor ko‘rsatishgan. G. Singh, V. Kanvar va Saurabx Bhatiya o‘z ishida oddiy differensial tenglamalarni sonli integrallash uchun ikki qadamli Adams-Bashfort usulining va bir qadamli Adams-Multon usulining yangi variantlarini taklif qildilar.

Shuni ta’kidlash joizki, S.L.Sobolev, V.L.Vaskevich, I.Babushka, G.Dahlkvist, G.N.Salixov, M.I.Isroilov, M.D.Ramazanov, V.I.Polovinkin, B.G.Gabdulxayev, I.V.Boykov, X.M.Shadimetov, A.R.Hayotov, F.A.Nuraliyev, D.M.Axmedov, S.S.Azamov, A.K. Boltayevlarning ilmiy ishlarida funksional fazolarda kubatur, kvadratur, interpolyatsion va ayirmali formulalarni optimallashtirish masalalari o‘rganilgan va rivojlantirilgan. M.M.Aripov va shogirdlarining ishlarida esa chiziqli bo‘lmagan parabolik tenglamalar yechimlarining asimptotik avtomodel ko‘rinishlari qurilgan. Giperbolik tenglamalar sistemalarini taqribiy yechish uchun turli xil ayirmali sxemalarining turg‘unligi R.D.Aloyev va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining ilmiy-tadqiqot rejalarining OT-F4-86 “Gilbert fazolarida differensial va integral tenglamalarni taqribiy yechishning optimal metodlarini ishlab chiqish” va YOFA-Ftex-2018-13 “Singulyar tenglamalarni taqribiy-analitik yechishning optimal algoritmlarini ishlab chiqish” mavzularidagi loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oddiy differensial tenglamalarni taqribiy yechish uchun oshkor va oshkormas optimal ayirmali formulalarni qurish va differensiallanuvchi funksiyalar sinflarida ularning xatolik funksionali normalarini hisoblashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

$L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida har qanday $m \geq 2$ uchun ayirmali formulaning ℓ xatolik funksionali normasi kvadratining ko‘rinishini topish;

optimal ayirmali formulaning koeffisientlari uchun Viner – Xopf tipidagi tenglamalar sistemasini olish, hamda ushbu sistema yechimining mavjudligi va yagonaligini isbotlash;

$L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida har qanday $m \geq 2$ uchun optimal ayirmali formulalarni qurish algoritmini ishlab chiqish;

$L_2^{(2)}(0,1)$ va $L_2^{(3)}(0,1)$ fazolarida ishlab chiqilgan algoritmni qo‘llab, Adams tipidagi optimal ayirmali formulaning koeffitsientlarini topish.

Tadqiqotning ob’ekti Oddiy differensial tenglamalar, oshkor va oshkormas optimal ayirmali formulalari, oshkor va oshkormas ayirmali formulalar uchun xatolikni baholash.

Tadqiqotning predmeti. Ekstremal funksiyalar, oddiy differensial tenglamalarni taqribiy yechish uchun oshkor va oshkormas optimal ayirmali formulalar.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishida hisoblash matematikasi va funksional analiz, hamda differensial tenglamalar nazariyasi, umumlashgan funksiyalar, diskret argumentli funksiyalar usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

$L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida har qanday $m \geq 2$ uchun ayirmali formula ℓ xatolik funksionali normasi kvadratining koʻrinishini ushbu funksionalning ekstremal funksiyasidan foydalanib topilgan;

optimal ayirmali formulaning koeffisientlari uchun Viner – Xopf tipidagi tenglamalar sistemasi olingan, hamda ushbu sistema yechimining mavjudligi va yagonaligi isbotlangan;

$L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida har qanday $m \geq 2$ uchun optimal ayirmali formulalarni qurish algoritmi differensial operatorning diskret analogidan foydalaninb ishlab chiqilgan;

$L_2^{(2)}(0,1)$ va $L_2^{(3)}(0,1)$ fazolarida Adams tipidagi optimal ayirmali formulalar qurilgan hamda ushbu ayirmali formulalarning koeffisiyentlari yordamida xatolik funksionali normalarining kvadratlari hisoblangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

olingan ilmiy natijalardan foydalanish geologiya va geofizika masalalarini yechish uchun yangi optimal algoritmlarni yaratish imkonini berdi;

amalda qoʻllaniladigan oldindan mavjud usul rezonans sohasida dissipativ mexanik tizimlar uchun qoʻllanilmasligini hisobga olgan holda dissertatsiyada olingan ilmiy natijalar elastik va yuqori elastik uch qatlamli qobiq elementlaridan tashkil topgan quvurning tebranish nazariyasini yangilash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ayirmali formulalar nazariyasi, hisoblash matematikasi, funksional analiz va diskret argumentli funksiyalar nazariyasi usullari qoʻllanilganligi, hamda matematik mulohazalarning qat’iyligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida Sobolev fazosida oddiy differensial tenglamalarni taqribiy hisoblash uchun oshkor va oshkormas koʻrinishdagi optimal ayirmali formulalarni qurish ishlab chiqilganlgi bilan izohlanadi.

Ushbu ishda olingan optimal oshkor va oshkormas koʻrinishdagi ayirmali formulalar fizika, mexanika, elastiklik nazariyasi va boshqa fanlarning koʻplab masalalarini, oddiy differensial tenglamalar ko`rinishiga keltirilgan holda, sonli yechish uchun qoʻllaniladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sobolev fazosida oddiy differensial tenglamalarni taqribiy yechish uchun optimal ayirmali formulalarni qurish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

$L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida har qanday $m \geq 2$ uchun ayirmali formula ℓ xatolik funksionali normasi yordamida olingan bahodan OT-F4-01 – “Qovushqoq suyuqlik oquvchi ko‘p qatlamli kompozit quvurlar egri chiziqli bo‘laklarining harorat va dinamik yuklanishlar ta‘sirida chiziqli bo‘lmagan dinamik kuchlanish-deformatsiya holatini o‘rganish usullarini ishlab chiqish va nazariyasini rivojlantirish” fundamental loyihasida uch qavatli qoplama quvurlarining atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sirini ko‘rib chiqish bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun foydalanilgan (Toshkent kimyo-texnologiya institutining 2022 yil 17 yanvardagi 1/01-86-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, elastik va qovushqoq elastik uch qatlamli qobiqsimon elementlardan tashkil topgan quvurning tebranishlari rezonans sohasida oldingi mavjud bo‘lgan, amaliyotda qo‘llanilayotgan metodikani dissipativ mexanik sistemalar uchun o‘rinli bo‘lmasligini hisobga olib, uni yangilashga va nazariyani rivojlantirishga imkon bergan;

$L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida optimal ayirmali formulalar koeffisiyentlari uchun olingan Viner – Xopf tipidagi tenglamalar sistemasining analitik yechimidan OT-Atex-2018-340-“Ikki tezlikli muhit dinamikasining amaliy geofizik masalalarini nazariy va sonli tadqiq qilish” amaliy loyihasida nazariy va amaliy geofizik masalalarga kiritilgan differensial tenglamalar yechimini ikki tezlikli dinamik muhitda taqribiy hisoblashda foydalanilgan. (Qarshi davlat universitetining 2022-yil 19 dekabrdagi 04/5168-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo’llanilishi geologiya va geofizika masalalarini yechish uchun yangi optimal algoritmlar qurish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashirlarda 5 ta maqola, shu jumladan, 2 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida chop etilgan hamda elektron hisoblash mashinalari uchun dasturni rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi bitta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 93 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob’yekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning « $L_2^{(m)}(0,1)$ **Sobolev fazosida ayirmali usullarini optimallashtirish**» deb nomlangan birinchi bobida Sobolev fazosida optimal ayirmali formulalarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Dissertatsiyaning ushbu bobida ayirmali formulalarni qurish masalalari, ya’ni, algebraik va funksional tarzda masalaning qo‘yilishi keltirilgan.

Qaralayotgan masalaning funksional qo‘yilishida $\varphi(x)$ funksiyalar Sobolevning $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosiga tegishli bo‘lib, bu yerda $L_2^{(m)}$ gilbert fazosi $m-1$ darajali ko‘phad bilan bir-biridan farq qiluvchi hamda $m-$ tartibli hosilalari $[0,1]$ oraliqda kavdarati bilan integrallanuvchi haqiqiy funksiyalar sinfidir.

Ayirmali fomrulaning ℓ xatolik funksionali normasining aniq ko‘rinishini topish uchun ushbu funksionalning ekstremal funksiyasidan foydalanamiz. Keyinchalik esa har qanday $m \geq 2$ uchun $L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida ekstremal funksiyani topamiz.

Ayirmali formulaning ℓ xatolik funksionali normasining kvadratini $C^{(1)}[\beta]$ koeffisientlar orqali minimallashtirish natijasida ayirmali formulaning $\overset{\circ}{C}{}^{(1)}[\beta]$ optimal koeffisientlarini topish uchun Viner-Xopf tipidagi sistema olinadi va $\overset{\circ}{P}_{m-2}[\beta]$ diskret argumentli optimal ko‘phad topiladi. Bu yerda Viner-Xopf tipidagi sistema yechimining mavjudligi va yagonaligi isbotlangan. Shu bilan birga, ushbu bobda har qanday $m \geq 2$ uchun $L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida optimal ayirmali formula qurishning algoritmi ishlab chiqilgan, hamda uning yordamida Adams tipidagi optimal ayirmali formulaning koeffisientlari ko‘rinishlari olingan.

Aytaylik $y(0) = y_0$ boshlang‘ich shart bilan berilgan

$$y' = f(x, y)$$

differensial tenglamaning yechimini [0,1] kesmada topish talab qilinsin. Biz bu kesmani $h = \frac{1}{N}$ uzunlikdagi N ta bo‘laklarga bo‘lamiz va izlanayotgan $y(x)$ yechimning taqribiy y_n yechimini $x_n = nh$, $n = 0,1,...,N$ nuqtalarda izlaymiz. Buning uchun quyidagi umumiy ko‘rinishdagi ayirmali formulani qaraymiz

$$\sum_{\beta=0}^{k} C[\beta]\varphi[\beta] - h\sum_{\beta=0}^{k} C^{(1)}[\beta]\varphi'[\beta] \cong 0, \tag{1}$$

xatolik funksionali

$$\ell=\sum_{\beta=0}^{k}C[\beta]\delta(x-h\beta)+h\sum_{\beta=0}^{k}C^{(1)}[\beta]\delta'(x-h\beta). \qquad (2)$$

Bu yerda $[\beta]=h\beta,\ h\beta\in[0,1],\ h=\frac{1}{N},\ N=2,3,...,\ \beta=0,1,...,k,\ k=1,2,3...,\ C[\beta]$ va $C^{(1)}[\beta]$ ayirmali formulaning koeffisientlari va $C[k]\neq 0,\ \delta(x)$ - Dirakning delta-funksiyasi, φ esa $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosining elementi. (1) ayirmali formula k – tartibli deb ataladi. k – tartibli ayirmali formula oshkormas deyiladi agar $C^{(1)}[k]\neq 0$ bo‘lsa, agar $C^{(1)}[k]=0$ bo‘lsa, u holda oshkor bo‘ladi. Quyidagi ayirma

$$(\ell,\varphi)=\sum_{\beta=0}^{k}C[\beta]\varphi[\beta]-h\sum_{\beta=0}^{k}C^{(1)}[\beta]\varphi'[\beta]. \qquad (3)$$

(1) ayirmali formulaning xatoligi deyiladi.

Koshi-Shvars tengsizligiga asosan

$$|(\ell,\varphi)|\leq\|\varphi\,|\,L_2^{(m)}\|\cdot\|\ell\,|\,L_2^{(m)*}\|,$$

ya’ni, (3) ayirmaning absolyut xatoligi ℓ xatolik funksionali normasi yordamida baholanadi:

$$\left\|\ell\,|\,L_2^{(m)*}\right\|=\sup_{\varphi,\left\|\varphi|L_2^{(m)}\right\|=1}|(\ell,\varphi)|.$$

Shunday qilib, (1) ayirmali formula (3) ayirmaning yuqori bahosi $L_2^{(m)}$ fazosidagi funksiyalarga mos keluvchi $L_2^{(m)*}$ qo‘shma fazosiga tegishli ℓ xatolik funksionali normasini topish bilan ifodalanadi.

(1) ko‘rinishdagi ayirmali formulalarni qurishning asosiy masalalaridan biri bu $L_2^{(m)}(0,1)$ fazoda optimal ayirmali formulalarni olishdir.

Birinichi bobining 1.1-paragrafi yordamchi bo‘lib, ta‘riflardan, ba‘zi bir formulalardan va natijalardan foydalanib, ushbu ishning asosiy natijalarini isbotlashda qo‘llanilgan. 1.2-paragrafda ayirmali formulaning ekstremal funksiyasi topilgan.

Quyidagi tenglikni qanoatlantiruvchi $\psi_\ell(x)\in L_2^{(m)}(0,1)$ funksiyaga

$$(\ell,\psi_\ell)=\left\|\ell\,|\,L_2^{(m)*}\right\|\cdot\left\|\psi_\ell\,|\,L_2^{(m)}\right\|$$

ℓ xatolik funksionalining ekstremal funksiyasi deyiladi.

Quyidagi o‘rinli

Teorema 1. $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida ℓ xatolik funksionalining ekstremal funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega

$$\psi_\ell(x)=(-1)^m\ell(x)*G_m(x)+P_{m-2}(x), \qquad (4)$$

bu yerda $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}}$ operatorning $G_m(x)-$ Grin funksiyasi va

$$G_m(x)=\frac{x^{2m-1}signx}{2(2m-1)!}, \tag{5}$$

$P_{m-2}(x)$ esa $m-2$ darajali ko‘phad.

1.3-paragrafda (1) ayirmali formulaning xatolik funksionali normasining kvadrati uchun aniq ifoda topilgan. Quyidagi teorema isbotlangan.

Teorema 2. $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida (1) ayirmali formulaning xatolik funksionali normasining kvadrati quyidagi

$$\left\|\ell\,|\,L_2^{(m)*}\right\|^2=(-1)^m\left[\sum_{\gamma=0}^{k}C[\gamma]\sum_{\beta=0}^{k}C[\beta]G_m(h\gamma-h\beta)-\right.$$
$$\left.-2h\sum_{\gamma=0}^{k}C^{(1)}[\gamma]\sum_{\beta=0}^{k}C[\beta]G_m^{'}(h\gamma-h\beta)-h^2\sum_{\gamma=0}^{k}C^{(1)}[\gamma]\sum_{\beta=0}^{k}C^{(1)}[\beta]G_m^{''}(h\gamma-h\beta)\right].$$

formula bilan aniqlanadi. Bu yerda

$$G_m^{'}(x)=\frac{x^{2m-2}signx}{2(2m-2)!}\text{va }G_m^{''}(x)=\frac{x^{2m-3}signx}{2\cdot(2m-3)!}.$$

$L_2^{(m)}(0,1)$ fazoda (2) xatolik funksionali bilan berilgan (1) ko‘rinishdagi optimal ayirmali formulani qurish masalasi

$$\left\|\overset{\circ}{\ell}\middle|L_2^{(m)*}(0,1)\right\|^2=\inf_{C^{(1)}[\beta]}\left|(\ell,\psi_\ell)\right| \tag{6}$$

kattalikning qiymatini topishdan iborat.

1.4-paragrafda, ℓ xatolik funksionali normasining kvadratini

$$\left(\ell,x^\alpha\right)=0,\quad \alpha=0,1,...,m-1, \tag{7}$$

shartlarda minimumga erishtiradigan $C^{(1)}[\beta]$ koeffitsientlari uchun

$$h\sum_{\gamma=0}^{k}C^{(1)}[\gamma]G_m^{''}[\beta-\gamma]+P_{m-2}[\beta]=-\sum_{\gamma=0}^{k}C[\gamma]G_m^{'}[\beta-\gamma].\ \beta=0,1,...,k. \tag{8}$$

$$h\alpha\sum_{\gamma=0}^{k}C^{(1)}[\gamma][\gamma]^{\alpha-1}=\sum_{\gamma=0}^{k}C[\gamma][\beta]^\alpha,\alpha=1,...,m-1. \tag{9}$$

Viner-Xopf tipidagi sistema olingan.

Bu yerda $C[\beta]$ koeffisientlar ayirmali formulaning Dalkivist ma‘nosida turg‘unligi va $\sum_{\gamma=0}^{k}C[\gamma]=0$ shartlardan aniqlanadi. (8) va (9) tenglamalar sistemasi yechiming yagonaligi tadqiq qilingan. Shu bilan birga, bu sistemaning yechimi (7) sistemaning yechimlari to‘plami bo‘yicha $\|\ell\|^2$ ga lokal minimum berishi isbotlangan.

1.5-paragrafda, $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida optimal ayirmali formula qurishning algoritmi keltirilgan. 1.6-paragrafda esa Adams tipidagi ayirmali formula qaraladi.

Quyidagi ko‘rinishdagi

$$\varphi[k]-\varphi[k-1]-h\sum_{\beta=0}^{k}C^{(1)}[\beta]\varphi'[\beta]\cong 0$$

ayirmali formulaga Adams tipidagi ayirmali formula deyiladi. Bu formula (1) formuladan

$$C[\beta]=\begin{cases}1 & \beta=k,\\ -1 & \beta=k-1,\\ 0 & 0\le\beta\le k-2.\end{cases}$$

shart bajarilganda olingan. Bu yerda quyidagi teorema isbotlangan.

Teorema 3. $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida $m\ge 3$ bo‘lganda Adams tipidagi ayirmali formulaning $\overset{\circ}{C}{}^{(1)}[\beta],\ \beta=0,1,2,\dots,k-1$ optimal koeffisienlarining ko‘rinishi quyidagicha

$$\overset{\circ}{C}{}^{(1)}[0]=-\frac{1}{2(k-1)}+\sum_{j=1}^{m-2}\left[\frac{(a_j-b_j)(\lambda_j-\lambda_j^k)}{(k-1)(1-\lambda_j)^2}-\frac{a_j\lambda_j-b_j\lambda_j^{k-1}}{1-\lambda_j}\right]$$

$$\overset{\circ}{C}{}^{(1)}[\beta]=\sum_{j=1}^{m-2}\left(a_j\cdot\lambda_j^{\beta}+b_j\lambda_j^{k-1-\beta}\right),\qquad \beta=1,2,\dots,k-2,$$

$$\overset{\circ}{C}{}^{(1)}[k-1]=\frac{2k-1}{2(k-1)}-\sum_{j=1}^{m-2}\left[\frac{(a_j-b_j)(\lambda_j-\lambda_j^k)}{(k-1)(1-\lambda_j)^2}-\frac{a_j\lambda_j^{k-1}-b_j\lambda_j}{1-\lambda_j}\right].$$

Bu yerda λ_j lar $2m-4$ darajali $E_{2m-4}(\lambda)$ Eyler ko‘phadining modul jihatdan 1 dan kichik ildizlari, ya’ni, $|\lambda_j|<1$, a_j va b_j noma’lum elementlar.

Dissertatsiyaning «$L_2^{(2)}(0,1)$ **fazosida optimal ayirmali formulalar**» deb nomlangan ikkinchi bobi $L_2^{(2)}(0,1)$ fazosida oshkor va oshkormas optimal ayirmali formulalarni qurishga bag‘ishlangan. Dissertatsiyaning ushbu bobida $L_2^{(2)}(0,1)$ fazosida har qanday natural k lar uchun oshkor va oshkormas optimal ayirmali formulalar qurilgan. Undan tashqari, $L_2^{(2)}(0,1)$ fazosida oshkor va oshkormas optimal ayirmali formulalarning xatolik funksionali normasining kvadrati hisoblangan, ya’ni, xatoliklarning baholari olingan.

Shuni ta’kidlash joizki, $L_2^{(2)}(0,1)$ Sobolev fazosida qurilgan oshkor optimal ayirmali formula ma’lum Eyler ayirmali formulasi bo‘lib chiqdi.

Ushbu bobning asosiy natijalari quyidagilardan iborat.

Teorema 4. $L_2^{(2)}(0,1)$ Sobolev fazosida Adams tipidagi oshkor optimal ayirmali formula yagona mavjudki,

$$\varphi[k]-\varphi[k-1]-h\sum_{\beta=0}^{k-1}C^{(1)}[\beta]\varphi'[\beta]\cong 0\,, \tag{10}$$

uning koeffisientlari quyidagi

$$\overset{\circ}{C}{}^{(1)}[\beta]=\begin{cases}1, & \beta=k-1,\\ 0, & 0\le\beta\le k-2\end{cases}$$

formula orqali aniqlanadi.

Teorema 5. $L_2^{(2)}(0,1)$ Sobolev fazosida Adams tipidagi oshkormas optimal ayirmali formula yogana mavjudki

$$\varphi[k]-\varphi[k-1]-h\sum_{\beta=0}^{k}C^{(1)}[\beta]\varphi'[\beta]\cong 0 \qquad (11)$$

uning koeffisientlari quyidagi

$$\overset{\circ}{C}{}^{(1)}[\beta]=\begin{cases}\frac{1}{2}, & \beta=k,\\ \frac{1}{2}, & \beta=k-1,\\ 0, & \beta=1,2,...,k-2.\end{cases}$$

formula orqali aniqlanadi.

Teorema 6. $L_2^{(2)}(0,1)$ fazosida (10) ko‘rinishidagi oshkor optimal ayirmali formula xatolik funksionali normasining kvadrati quyidagi

$$\left\|\overset{\circ}{\ell}{}_N^{ya}\left|L_2^{(2)*}\right.\right\|^2=\frac{h^3}{3}$$

formula orqali aniqlanadi.

Teorema 7. $L_2^{(2)}(0,1)$ fazosida (11) ko‘rinishidagi oshkormas ko‘rinishidagi barcha ayirmali formulalar orasida shunday optimal ayirmali formula mavjudki, uning xatolik funksionali normasining kvadrati quyidagi

$$\left\|\ell_N^{n.ya}\left|L_2^{(2)*}\right.\right\|^2=\frac{h^3}{12}$$

formula orqali aniqlanadi.

Dissertatsiyaning «$L_2^{(3)}(0,1)$ **fazosida optimal ayirmali formulalar**» deb nomlangan uchinchi bobi $L_2^{(3)}(0,1)$ fazosida oshkor optimal ayirmali formulalarni qurishga bag‘ishlangan.

Ushbu bobda $L_2^{(3)}(0,1)$ fazosida har qanday natural k lar uchun oshkor optimal ayirmali formulalar qurilgan. Bu yerda oshkor optimal ayirmali formulaning xatolik funksionali normasining kvadratini topishda muhim bo‘lgan optimal ko‘phad topilgan. $L_2^{(3)}(0,1)$ fazosida oshkor optimal ayirmali formulalarning xatolik funksionali normasi hisoblangan, ya’ni, xatoliklarning baholari olingan.

Undan tashqari, $m-2$ darajali diskret argumentli optimal ko‘phad yordamida $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida oshkor optimal ayirmali formulaning xatolik funksionali normasi uchun yangi formula olingan. Keyinchalik qurilgan oshkor optimal ayirmali formula yordamida Koshi masalalari sonli yechilgan.

Ushbu bobning assosiy natijalari quyidagilardan iborat.

Teorema 8. $L_2^{(3)}(0,1)$ fazosida (10) Adams tipidagi yogana oshkor optimal ayirmali formula mavjud bo‘lib, uning koeffisientlari quyidagi

$$\overset{\circ}{C}{}^{(1)}[0] = -\frac{1}{k-1} - \frac{\lambda^{k-1}(\lambda+2)}{\lambda^{2k-2}-1},$$

$$\overset{\circ}{C}{}^{(1)}[\beta] = \frac{3\lambda^{k-1}\left(\lambda^{\beta}-\lambda^{-\beta}\right)}{\lambda^{2k-2}-1},\ \beta = 1,2,\ldots,k-2,$$

$$\overset{\circ}{C}{}^{(1)}[k-1] = 1 + \frac{3}{1-\lambda} + \frac{\lambda+2}{\lambda^{2k-2}-1},$$

formulalar orqali aniqlanadi. Bu yerda $\lambda = \sqrt{3}-2.$

Teorema 9. $\overset{\circ}{P}_1[\beta] = b_0[\beta] + b_1$ optimal ko‘phad quyidagi formula orqali aniqlanadi, ya’ni

$$\overset{\circ}{P}_1[\beta] = -\frac{h^3}{6}\left(\frac{\lambda(\lambda^{k-3}+1)}{4(\lambda^{k-1}+1)}+1\right)[\beta] + \frac{h^4}{48}\left(8k-7+\frac{2(k-1)\lambda(\lambda^{2k-4}-1)}{\lambda^{2k-2}-1}\right),$$

bu yerda $\lambda = \sqrt{3}-2.$

Teorema 10. $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida (10) Adams tipidagi oshkor optimal ayirmali formula xatolik funksionali normasining kvadrati quyidagi

$$\left\|\ell \left| L_2^{(m)*}\right.\right\|^2 = (-1)^m\left(-\frac{h^{2m-1}}{(2m-1)!} + h\sum_{\gamma=0}^{k-1}\overset{\circ}{C}{}^{(1)}[\gamma]\left(\overset{\circ}{P}_{m-2}[\gamma] + f_m[\gamma]\right)\right)$$

formula orqali aniqlanadi. Bu yerda $\overset{\circ}{C}{}^{(1)}[\gamma]$ lar oshkor ayirmali formulaning optimal koeffisientlari, $\overset{\circ}{P}_{m-2}[\gamma]$ esa $[\gamma] = h\gamma$ diskret argumentli $m-2$ darajali ko‘phad.

Teorema 11. $L_2^{(3)}(0,1)$ fazosida (10) Adams tipidagi oshkor optimal ayirmali formula xatolik funksionali normasining kvadrati quyidagi

$$\left\|\overset{\circ}{\ell} \mid L_2^{(3)*}\right\|^2 = \frac{h^5}{24}\left(2k+1{,}2+\frac{(4k-2)(\lambda^k-\lambda^{k-2})+\lambda^{2k-3}-\lambda}{2(\lambda^{2k-2}-1)}\right)$$

formula orqali aniqlanadi. Bu yerda $\lambda = \sqrt{3}-2.$

3.4-paragraf “Sonli natijalar” da $L_2^{(3)}(0,1)$ Sobolev fazosida qurilgan k qadamli oshkor optimal ayirmali formulalar yordamida Koshi masalasi sonli yechilgan. Olingan natijalar Eyler va takomillashtirilgan Eyler usullarida olingan sonli natijalar bilan taqqoslangan.

XULOSA

Dissertatsiya ishi oddiy differensial tenglamalarga qo‘yilgan Koshi masalasini taqribiy yechish uchun oshkor va oshkormas optimal ayirmali formulalarini qurish va ularning Sobolev fazosida xatolik funksionali normalarini hisoblashga bag‘ishlangan.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1. $L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida ayirmali formulalarning ekstremal funksiyasi topilgan;
2. $L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida ayirmali formulalarning xatolik funksionali normasining ko‘rinishi olingan;
3. Har qanday $m \geq 2$ uchun $L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida optimal ayirmali formulaning koeffisientlari uchun Viner-Xopf tipidagi sistema olingan. Olingan sistema yechimining mavjudligi va yagonaligi isbotlangan;
4. $L_2^{(2)}(0,1)$ fazosida k qadamli oshkor va oshkormas optimal ayirmali formulalar qurilgan;
5. $L_2^{(2)}(0,1)$ fazosida oshkor va oshkormas optimal ayirmali formulalarning xatolik funksionali normasi hisoblangan, ya’ni, xatoliklarning baholari olingan;
6. $L_2^{(3)}(0,1)$ fazosida k qadamli oshkor optimal ayirmali formulalar qurilgan va ularning xatoliklari baholari olingan;
7. $L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida oshkor optimal ayirmali formulalarning xatolik funksionali normasining kvadratini topishda muhim bo‘lgan $m-2$ darajali diskret argumentli optimal ko‘phad topilgan;
8. $L_2^{(m)}(0,1)$ Sobolev fazosida oshkor optimal ayirmali formulalarning xatolik funksionali normasi uchun formula olingan;
9. Qurilgan oshkor optimal ayirmali formulalar yordamida Koshi masalasi sonli yechilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FM.01.02
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

ИНСТИТУТ МАТЕМАТИКИ ИМЕНИ В.И.РОМАНОВСКОГО

МИРЗАКАБИЛОВ РАВШАН НАРКУЗИЕВИЧ

ОПТИМАЛЬНЫЕ РАЗНОСТНЫЕ ФОРМУЛЫ В ПРОСТРАНСТВЕ СОБОЛЕВА

01.01.03 – Вычислительная и дискретная математика

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по
ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

ТАШКЕНТ-2023

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по физико-математическим наукам зарегистрированна в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № B2019.2.PhD/FM342.

Диссертация выполнена в Институте Математики им. В.И.Романовского АН РУз.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (http://ik-fizmat.nuu.uz/) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz)

Научный руководитель:	**Шадиметов Холматвай Махкамбаевич** доктор физико-математических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Хаётов Абдулло Рахмонович** доктор физико-математических наук, профессор
	Худойберганов Мирзоали Уразалиевич доктор физико-математических наук, доцент
Ведущая организация:	**Термезский государственный университет**

Защита диссертации состоится «____» _____________2023 года в ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 при Национальном университете Узбекистана. (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871)227-12-24, факс: (+99871) 246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за №_____). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871) 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан «____» _______________2023 года.
(протокол рассылки №________ от «____» _______________2023 года).

М.М. Арипов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

З.Р. Рахмонов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н.

Р.Д. Алоев
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученой степени доктора наук, д.ф.-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в настоящее время при численном решении многих задач физики и техники, описываемых уравнениями математической физики, используется метод конечных разностей. Основные понятия разностных методов - это аппроксимация, устойчивость, сходимость, которые иллюстрируются на примерах разностных схем для обыкновенных дифференциальных уравнений. При больших численных расчетах становится полезным оптимизировать процесс приближенного решения обыкновенных дифференциальных уравнений, а если вычисления производятся с помощью разностных формул, то оптимизируются и сами формулы. Проблема оптимизации разностных формул в современном понимании выглядит как проблема отыскания минимума нормы функционала погрешности разностной формулы. Поэтому построение оптимальных разностных формул в пространствах Соболева и нахождение нормы функционала погрешности оптимальных разностных формул являются актуальными задачами вычислительной математики.

В настоящее время в мире дискретные методы находят наиболее широкое применение в прикладных задачах. Характерная особенность дискретных методов для решения задачи Коши заключается в том, что процесс решения состоит в повторении алгоритма для получения искомого решения с использованием известных, ранее вычисленных значений приближенных решений. Для этого требуется выбрать наилучший численный метод решения данной задачи. Численный метод называться оптимальным, если он минимизирует максимум возможных ошибок в пределах заданного четко определенного класса задач в пространствах. Поэтому построение оптимальных явных и неявных разностных формул типа Адамса и вычисления квадрата нормы этих оптимальных разностных формул в пространстве Соболева является одним из приоритетных научных исследований.

В нашей стране большое внимание уделяется такому важному направлению, как разработка оптимальных численных методов решения прикладных задач и их оценки погрешностей в функциональных пространствах, в частности, теории оптимальных разностных, кубатурных, интерполяционных формул в пространстве Соболева и в построении дискретных аналогов дифференциальных операторов. В деятельности Института математики имени В.И. Романовского АН РУз проводятся научные исследования на уровне международных стандартов по приоритетным направлениям как «Математический и функциональный анализ, алгебра, теории дифференциальных уравнений, теории вероятностей и математической статистики, математической физики, математического моделирования, вычислительной и дискретной математики»[2]. Для обеспечения выполнения постановления важно создать оптимальные разностные формулы в функциональных пространствах.

[2] Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП–4708 «О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области математики» от 07 мая 2020 года.

